O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA' LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori M.E.Po'latov

« » __________ 2024 yil

Ro'yxatga olindi: № FD-14-03/1

2024 yil " 29 " 08

# BANK MENEJMENTI VA MARKETINGI

fanidan

# FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 400 000 - Biznes, boshqaruv va huquq |
| Ta'lim sohasi: | 410 000 - Biznes va boshqaruv |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60410700- Bank ishi va auditi |

SAMARQAND – 2024

| Fan kodi / mavzusi | | O'quv yili 2024 – 2025 | semestr 7 | Kreditlar 6 |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Majburiy | | Ta'lim tili o'zbek/rus | | Haftada auditoriya soatlar 4 |
| 1 | Fan nomi | Auditoriya darslar (soatlar) | Mustaqil ta'lim (soat) | Umumiy yuklama (soat) |
| | Bank menejmenti va marketingi | 90 | 90 | 180 |

2

**I. Fanning mazmuni.**

"Bank menejmenti va marketingi" fanning maqsadi – talabalarga bank tizimida kadrlar salohiyatini rivojlantirishning asosiy tamoyillari, O'zbekiston Respublikasi bank tizimini yanada takomillashtirish sharoitida banklarning boshqaruv tizimi talablarini etiborga olgan holda yuqori malakali mutaxassislami yetishtirib chiqarishdan iborat, banklarga mijozlarni jalb etish borasida fikrlay olish, banklar faoliyatini baxolash metodlaridan foydalana olish va bank menejmenti to'g'risida nazariy va amaliy bilimlar berishdir, banklarda moliyaviy menejmentni tashkil etish va amalga oshirish, marketing izlanishlami olib borish usullarini anglash bank xizmatlari raqobatbardoshligni oshirish tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baxolash, banklar faoliyatini stategik va taktik rejalashtirish; banklar faoliyatini boshqarish va tartibga solish bo'yicha malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Bank ishi talim yo'nalishi bo'yicha kurs ishi va malakaviy bitiruv ishlari yozishga qo'yiladigan talablar haqida chuqur nazariy va amaliy bilimlar berishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza darslari)**

**II.I. Fan quyidagi mavzularni o'z ichiga oladi:**

**1-mavzu. " Bank menejmenti va marketingi faniga kirish. Fanning predmeti va vazifalari"**

Bank menejmenti va marketing fanining predmeti va uning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi. Bank menejmenti va marketing fanining maqsad va vazifalari.

**2-mavzu. Banklar faoliyatida menejment va uning zarurligi**

Bank menejmentining mazmuni uning nazariy asoslari. Bank menejmentini maqsadi va vazifalari. Bank menejmentini tarkibiy tuzilishi va unda tartibga solish va nazoratning o'rni.

**3-mavzu. Bank menejmentining huquqiy asoslari**

Huquqiy tartibga solish usullari. Bank huquqiy tizimi. Bank huquqiy meyoriy tartlari. O'zbekistonda bank menejmentini rivojlanish bosqichlari va uni tashkil etish qonunchilik bazasi. Banklar faoliyatini boshqarishni tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki meyoriy hujjatlari va ularga qisqacha tavsif. Banklarda samarali boshqaruvni tashkil etishda bankning ichki qaror, tartib va siyosatlarining ahamiyati.

**4-mavzu. Tijorat banklarini faoliyatini boshqarishni tashkil etish asoslari**

Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish asoslari va tamoyillari Banklar faoliyatini boshqarishning tashkiliy tuzilishi. Bank faoliyatini boshqarishning matritsali va chiziqli modellari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining tashkiliy tuzilishiga tasir qiluvchi omillar. Tijorat banklarini faoliyatini strategik va taktik boshqarish.

**5-mavzu: Tijorat banklari faoliyatini korporativ boshqarish**

Tijorat banklari faoliyatini korporativ boshqarishning mazmuni va uning axamiyati. O'zbekistonda banklar faoliyatini korparativ boshqarishning xuquqiy asoslari. Korparativ boshqarishning modellari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Banklar korparativ boshqarishning afzallik va kamchiliklari. O'zbekistonda banklar faoliyatini korparativ boshqarishni rivojlantirish masalalari.

**6-mavzu. Tijorat banklari faoliyatida moliyaviy menejment**

Tijorat banklari faoliyatida moliyaviy menejment. Tijorat banklarida passivlarni boshqarishning bank faoliyatidagi ahamiyati. Tijorat banklarida aktivlarni boshqarish Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish usullari Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida banklar faoliyatini boshqarishda moliyaviy menejmentning o'rni.

**7-mavzu. Bank hodimlarini boshqarish tizimi**

Bank hodimlarini boshqarish va uning o'ziga xos xususiyatlari Banklarda hodimlarga bo'lgan talabni rejalashtirish, ularni yollash v baxolash masalalari. Xodimlarni rag'batlantirish. Jamoani yuqori maqsadla yo'lidagi faoliyati. Boshqaruv qarorlarining moxiyati va ularga qo'yiladiga talablar. Bank xodimlariga qo'yiladigan malaka talablari va xodimlar boshqarish usullari Xodimlarni boshqarish samaradorligi

**8-mavzu. Banklararo raqobat moxiyatini shakllantirishi**

Banklararo raqobatning iqtisodiy mazmuni va uning tashkil etilish banklararo raqobatning asosiy shakllari va uning tasnifi, banklararo raqob muhitini shakllantiruvchi omillar va uni baholash usullari

**9-mavzu. Banklar faoliyatini strategik rejalashtirish**

Tijorat banklarida strategik rejalashtirish tizimining tuzilishi, tijor banklari faoliyatini strategik rejalashtirish Tijorat banklarni moliyav faoliyatini rejalashtirish va uning tuzilishi (foiz siyosati, emission siyos deposit siyosati, kredit siyosati, font siyosati, dividend siyosati va likvidlilik taminlash bo'yicha siyosati). Rejalashtirish strategik menejmentni funksiyasi sifatida. Rejalashtirish tizimlarining tarkibiy tuzilishi. Strate rejalashtirishning konseptual asoslari. Tijorat banklari faoliyatini strate rejalashtirish.

**10-mavzu. Tijorat banklari faoliyatida marketing**

Bak marketingining moxiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari. Marketingning maqsad va vazifalari Bank marketingining tarkibiy qismlari Marketing tizimida nazorat va bank faoliyatini rivojlantirishdagi uning o'rni. Bank marketing xizmatining zarurligi va uning asosiy yo'nalishlari. Bank marketingida nazoratni samarasini taminlash yo'llari. Marketing izlanish tamoyillari va moxiyati. Marketing axborotlarini yig'ish. Marketing axborotlarini taxlil qilish va boshqaruv qarorlarini taxlil qilish.Iqtisodiyotni modernizatsiyalsh sharoitida banklar faoliyatida marketingni rivojlantirish yo'llari.

**11-mavzu. Bank maxsulotlari va xizmatlari bozori**

Bank mahsuloti tushunchasi va mohiyati Bank maxsulotlari va ularning turlari. Bank maxsulotlariga talab va uni rivojlantirish omillari. Bank xizmatlarining turlari. Bank mahsulotlari va xizmatlari bozori Tijorat banklarida bank mahsulotni hayot davrini uzaytirish masalalari Bank maxsulotlari bozorini o'rganishning asosiy yo'nalishlari.Yangi bank xizmatlari va ularni tavsifi(CMC bank, internet bank, Mobil bank, Koll markazlari) Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.

**12-mavzu. Tijorat bankining mijozlar bozori**

Tijorat bankining mijozlari bozori, Tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan bank xizmatlari klassifikatsiyasi, tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan an'anaviy va noan'aviy xizmat turlari, plastik kartochkalar va ularni qo'llash zaruriyati. internet banking xizmatlari

**13-mavzu. Tijorat banklari faoliyatini baholash**

Tijorat banklari faoliyatini baholashning mohiyati va ahamiyati. Bank reytingini aniqlash metodikasi. Baholashning reyting tizimlari. Koeffisentlar tahlili tizimi. Bank risklarini kompleks baholash tizimi. Statistik modellar O'zbekiston tijorat banklari faoliyatini baxolash tizimi

**III. Amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar va takliflar**

*Amaliy mashg'ulotlar uchun tavsiya etilgan mavzular:*

- Amaliy mashg'ulotlar maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedogogik faoliyati bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish.
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini taminlash;
- Talabani nazariy metodik jixatdan tayyorlash;
- Amaliy mashg'ulotlar nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir;

Amaliy mashg'ulotlar boyicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Banklar faoliyatida menejment va uning zarurligi
2. Bank menejmentining xuquqiy asoslari
3. Tijorat banklari faoliyatini boshqarishni tashkil etish asoslari.
4. Tijorat banklari faoliyatini korparativ boshqarish.
5. Tijorat banklari faoliyatida moliyaviy menejment
6. Bank xodimlarini boshqarishtizimi.
7. Tijorat banklari faoliyatida mareting.
8. Bank maxsulotlar va xizmatlar bozorini o'rganish.
9. Tijorat banklarining mijozlari bozori.
10. Banklararo raqobat: moxiyati va shakllanishi
11. Banklar faoliyatini strategic rejalashtirish
12. Tijorat banklari faoliyatini baxolash

Amaliy mashg'ulot mavzularida fanning ishchi o'quv dasturini ishlab chiqishda qo'shimcha va o'zgarishlar kiritilishi mumkin.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jixozlangan auditoriyada bir akademguruxga bir o'qituchi tomonidan o'tkazilishi lozim.

Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda pedogogik va axborot texnologiyalar qo'llanishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ish**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank menejmentini rivojlantirish masalalari
2. O'zbekiston Respublikasi bank xuquqining rivojlanish bosqichlari.
3. Banklar boshqaruvining tuzilishi va uning modellari.
4. O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida korparativ boshqaruvni tashkil qilish asoslari va uning zarurligi.
5. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari faoliyatini boshqarishda moliyaviy menejmentning roli.
6. Xodimlarni rag'batlantirish va bank faoliyati samaradorligini oshirish.
7. Tijorat banklari faoliyatini marketing strategiyasi orqali boshqarish.
8. Tijorat banklari baxo siyosati va uning yo'nalishlari.
9. Tijorat banklarining mijozlarini jalb qilish borasidagi siyosati.
10. Banklararo raqobat va uning shakllanish asoslari.
11. Banklar faoliyatida strategik rejalashtirish va uning tuzilishi.
12. Banklarda ichki nazorat va uning boshqaruv jarayonidagi roli.

Fanning ishchi o'quv dasturini ishlab chiqishda mustaqil talim va mustaqil ish mavzularida qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin..

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya qilinadi.

***"Bank menejmenti va marketingi"** fanidan ishlab chiqilgan o'quv dasturiga mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarga mavzular qo'shilishi mumkin.*

| | |
|---|---|
| | Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'rganilgan va dolzarb mavzularda referatlar tayyorlash va taqdim etish tavsiya etiladi.<br>**Mavzu bo'yicha kurs ishi.**<br>O'quv yilida kurs ishlarini yozish ko'zda tutilmagan. |
| 3 | **V. fanni o'qitish natijalari**<br>**Talabalar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish, zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'lish talablari:**<br>Fanni o'rganish natijasida talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:<br>- Bank menejmenti va marketingining vazifalari va shakllari:<br>-zamonaviy bank menejmenti nazariyalarining asosiy munozarali masalalari;<br>-bank menejmenti va mohiyati;<br>-bank menejmenti va uning tuzilishi:<br>- bank tizimining elementlari va uning rivojlanishi;<br>- inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy natijasi;<br>- kredit qonunlari va uning rivojlanish bosqichlari;<br>-kreditning funktsiyalari, shakllari va turlari;<br>-bank tizimining turlari va elementlari;<br>-Markaziy bankning tuzilishi va funktsiyalari;<br>-tijorat banklarining faol va passiv operatsiyalari tarkibi:<br>-bank bo'lmagan kredit tashkilotlarining resurs bazalari va faol operatsiyalari;<br>-kredit tizimining elementlari va shakllari;<br>-milliy valyuta tizimi va uning elementlari;<br>xalqaro moliya-kredit institutlarini rivojlantirish.<br>**Fanni o'rganish natijasida talabalar mutaxasislik ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:**<br>- bank menejmenti va marketingi sohasidagi jarayonlarni tizimlashtirish va baholash, shuningdek ularning o'zaro bog'liqligini baholash:<br>-bank marketingining bank faoliyatidagi ahamiyati, bank faoliyatida bank menejmentning ahamiyati va o'rni menejmentning bank xodimlarini boshqarishdagi o'rni:<br>- marketingning shakllari va turlaridan foydalanish;<br>-bank tizimining barqarorligini ta'minlash;<br>-O'zbekiston Respublikasi bank tizimini tashkil etish;<br>-faol operatsiyalar xavfini baholash va tijorat daromadliligi;<br>-menejment munosabatlarini barqarorlashtirish;<br>- xalqaro moliya-kredit institutlari faoliyatini tashkil etish. |
| 4 | **VI. Ta'lim texnologiyalari va usullari:**<br>- ma'ruzalar;<br>-amaliy ishlarni bajarish va xulosalar;<br>-keys-stadi;<br>-blits so'rovi;<br>-kichik guruhlarda ishlash;<br>-taqdimot tayyorlash;<br>- jamoada ishlash va ularni himoya qilish bo'yicha loyihalar. |
| 5. | **VII. Kredit olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1.Abdullayeva Sh.Z. "Bank ishi" Darslik T. "Iqtisod-Moliya" 2017 y. – 732 b.<br>2. Omonov A.A., Qoraliyev T.M., "Pul va Banklar" darslik. T.: "Iqtisod-Moliya" 2018 y. 378 b.<br>3.O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. Yangi tahriri ostida 2019-yil 11-noyabr.<br>4.«Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni(yangi tahriri). – T.: "O'zbekiston", 2019 yil 22 oktyabr<br>5. Ortiqov O.A. Bank menejmenti va marketingi. O'quv qo'llanma T:-Iqtisod –moliya, 2015 y. 220 b.<br>6. Karaliev T.M., Sayfiddinov I.F. "Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorati" Darslik T: «Iqtisod-Moliya», 2019 y. - 304 b.<br>7.Mullajonov F. «O'zbekiston Respublikasi bank tizimi» T. "O'zbekiston" 2011 yil<br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>1..O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O' zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo 'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, PF-4947, 07.02.2017-y.<br>2.2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992- sonli Farmoni.<br>3. Кузнецова, Е.И. Деньги, кредит, банки: Учебное пособие / Е.И. Кузнецова. - М.: ЮНИТИ, 2019. - 567 с.<br>1. **Internet saytlari:**<br>2. www.tfi.uz;<br>3. www.state.uz;<br>4. www.bir.uz;<br>5. www.cbu.uz;www.nbu.com; |
| 7. | O'quv dasturi 2024 yil 30 - avgust kuni Samarqand iqtisodiyot va servis instituti ilmiy-metodik kengashi majlisida 1 - sonli bayonnoma bilan tasdiqlangan. FSD-14-03/1 |
| 8. | **Mavzu / modul uchun masullar:**<br>Karimova A.M. "Bank ishi" kaf.mud.i.f.d.doct.,<br>Niyozov Z.D. "Bank ishi" kaf.doct.i.f.n<br>Norqulov H.I. "Bank ishi" kaf.assistent<br>Maxsudov O.SH. "Bank ishi" kaf.assistent |
| 9. | **Taqrizchilar:** |